O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

GULKARAM MARKETINGI VA TIJORAT SIFAT NAZORATI

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti
Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #JC58ON8S40 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan **ISHLAB CHIQILDI.**

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 14-sentabrdagi 32/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

3 Ushbu standart FFV-52:2017 “Marketing and commercial quality control of Cauliflower” xalqaro standartiga aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standart va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishli

STANDARTLAR INSTITUTI #JC58ON8S40 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

ESLATMA

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruh

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi (BMT YIK) Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruh tomonidan ishlab chiqilgan tijorat sifati standartlari xalqaro savdoni rivojlantirishga ko‘maklashadi, yuqori sifatli mahsulot yetishtirishni rag‘batlantiradi, rentabellikni oshiradi hamda iste’molchilar manfaatlarini himoya qiladi. BMT YIK standartlaridan hukumatlar, ishlab chiqaruvchilar, tadbirkorlar, import qiluvchilar va eksport qiluvchilar, shuningdek, boshqa xalqaro tashkilotlar foydalanadilar. Ushbu standartlar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining keng spektrini, jumladan, yangi uzilgan ho‘l meva va sabzavotlar, quritilgan mahsulotlar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlarini qamrab oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining har qanday a‘zosi Ishchi guruh faoliyatida teng huquqli asosda ishtirok etishi mumkin. Qishloq xo‘jaligi standartlari haqida qo‘shimcha ma‘lumot olish uchun bizning veb-saytimizga tashrif buyuring: http://www.unece.org/trade/agr/welcome.html

Mazkur Gulkaramlar uchun qayta ko‘rib chiqilgan standart 2021-yilda Ishchi guruh tomonidan ko‘rib chiqilgan va qabul qilingan ECE/CTCS/WP.7/2021/23 hujjati asosida ishlab chiqilgan (COVID-19 davridagi maxsus tartiblarga muvofiq sukut saqlash tartib-taomili orqali yakunlangan)..

Ushbu nashrda qo‘llanilgan atamalar materiallarning taqdim etilishi BMT Kotibiyati tomonidan har qanday mamlakat, hudud, shahar yoki viloyatning, yoxud ularning hokimiyat organlarining huquqiy darajasi, shuningdek, ularning chegaralari yoki hududiy daxlsizligini belgilash borasida biron-bir fikr bildirilishini anglatmaydi. Kompaniya nomlari yoki tijorat mahsulotlarining eslatib o‘tilishi BMT tomonidan ularni qo‘llab-quvvatlash yoki ma‘qullashni bildirmaydi.
Barcha materiallardan erkin foydalanish yoki ularni qayta chop etish mumkin, biroq asl manbaga havola ko‘rsatilishi talab etiladi.
Har qanday sharhlar yoki so‘rovlar yuzasidan quyidagi manzil bo‘yicha biz bilan bog‘lanishingizni so‘raymiz:
Qishloq xo‘jaligi standartlari bo‘limi
Iqtisodiy hamkorlik va savdo divizioni
Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi
Palais des Nations
CH-1211 Jeneva 10, Shvetsariya
Elektron pochta: agristandards@un.org

STANDARTLAR INSTITUTI #JC58ON8S40 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

GULKARAM MARKETINGI VA TIJORAT SIFAT NAZORATI

МАРКЕТИНГ И КОНТРОЛЬ КОММЕРЧЕСКОГО КАЧЕСТВА ЦВЕТНОЙ КАПУСТЫ

MARKETING AND COMMERCIAL QUALITY CONTROL OF CAULIFLOWER

Amalga kiritish sanasi: 14.11.2026

I. Mahsulotni ta’rifi

Ushbu standart iste’molchiga yangi uzilgan holda yetkazib berish uchun mo‘ljallangan, Brassica oleracea var. botrytis L. turidan o‘stirilgan (madaniylashtirilgan) gulkaram navlariga taalluqli. Sanoatda qayta ishlashga mo‘ljallangan gulkaram bundan mustasno.

II. Sifatga oid qoidalar

Standartning maqsadi — gulkaramni tayyorlash va qadoqlashdan keyingi bosqichdagi sifat talablarini belgilashdan iborat.

Biroq, eksport/jo‘natishdan keyingi bosqichlarda qo‘llanilgan taqdirda, mahsulotlar standart talablariga nisbatan quyidagi xususiyatlarni namoyon etishi mumkin:

• barraligi va tarangligining biroz yetishmasligi;

• “Oliy” sinfidan boshqa sinflarga ajratilgan mahsulotlarning yetilishi va tez buzilishi tufayli biroz yomonlashishi mumkin..

Mahsulotni sotuvchi shaxs ushbu standart talablariga muvofiq bo‘lmagan mahsulotlarni har qanday boshqa usulda namoyish qilishi, sotuvga qo‘yishi, yetkazib berishi yoki savdoga chiqarishi mumkin emas. Mahsulotga egalik qiluvchi shaxs ushbu talablarga muvofiqlikni ta’minlash uchun javobgardir

A. Minimal talablar

Barcha sinflarda, har bir sinf uchun maxsus qoidalar va ruxsat etilgan me’yoriy cheklovlarni hisobga olgan holda, gulkaramga belgilangan talablar quyidagicha bo‘lishi kerak:

• butun holda, biroq gulkaram quyidagi qoidalarga rioya qilgan holda "barglari bilan," "barglarsiz" yoki "kesilgan" holda taqdim etilishi mumkin:

• "bargli": gulkaram sog‘lom yashil barglar bilan qoplangan bo‘lib, ularning soni boshni butunlay qoplab, himoya qilish uchun yetarli va uzun bo‘lishi kerak. Poyani himoya barglaridan biroz pastroqdan kesish kerak.

• «qirqilgan»: bosh qismini himoya qilish uchun yetarlicha barglari qoldirib qirqilgan gulkaram. Bu barglar sog‘lom, yashil bo‘lishi kerak va ularni qirqish mumkin. Poyani himoya barglaridan biroz pastroqdan kesish kerak.

.

• “Tozalangan”: gulkaram boshchasini himoya qilish uchun yetarli miqdorda barglari qoldirilgan bo‘lishi kerak. Ushbu barglar sog‘lom va yashil rangda bo‘lishi hamda qisqartirilishi mumkin. Poyasi himoya qiluvchi barglardan biroz pastroq joyidan kesilgan bo‘lishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #JC58ON8S40 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

• sog‘lom bo‘lishi; chirish yoki iste’molga yaroqsiz holga keltiradigan darajada buzilishdan zararlangan mahsulotlar chiqarib tashlanadi;`

• toza bo‘lishi, ko‘zga ko‘rinadigan begona aralashmalardan deyarli xoli bo‘lishi;

•• «qirqilgan»: bosh qismini himoya qilish uchun yetarlicha barglari qoldirib qirqilgan gulkaram. Bu barglar sog‘lom, yashil bo‘lishi kerak va ularni qirqish mumkin. Poyani himoya barglaridan biroz pastroqdan kesish kerak.

• tashqi ko‘rinishi barra bo‘lishi;
• zararkunandalardan deyarli xoli bo‘lishi;
• zararkunandalar yetkazgan zararlardan deyarli xoli bo‘lishi;
• me’yordan tashqari tashqi namlikka ega bo‘lmasligi;
• begona hid va/yoki ta’mga ega bo‘lmasligi;
• har qanday yot hid va ta’mdan xoli bo‘lishi lozim;

Gulkaramning rivojlanishi va holati shunday bo‘lishi kerakki, ular quyidagi imkoniyatlarni ta’minlasin**:**

• tashish va yuklash-tushirish jarayonlariga bardosh bera olishi;
• mo‘ljallangan manzilga qoniqarli holatda yetib borishini ta’minlashi.

B. Tasniflash

Gulkaram quyida belgilangan uchta sinfga tasniflanadi:

(i) Oliy sinfi

Ushbu sinfga kiruvchi gulkaramlar yuqori sifatli bo‘lishi kerak. Ular navga va tijorat turiga xos belgilarga ega bo‘lishi lozim.

Gulkaram boshchalari quyidagi talablarga javob berishi kerak:

• yaxshi shakllangan, zich va mustahkam bo‘lishi;
• juda zich tuzilishga ega bo‘lishi;
• oq navlar uchun rangi bir xil oq yoki biroz qaymoq rangida bo‘lishi;
• dog‘lar, karam boshidan chiqib turgan barglar, sovuq urishi izlari, ezilishlar kabi nuqsonlardan xoli bo‘lishi kerak.

Mahsulotlar nuqsonsiz bo‘lishi kerak, faqat mahsulotning umumiy ko‘rinishiga, sifatiga, saqlanishiga va qadoqdagi ko‘rinishiga ta’sir qilmaydigan juda kichik yuzaki nuqsonlarga yo‘l qo‘yilishi mumkin.

Bundan tashqari, agar gulkaram “barglari bilan” yoki “kesilgan” holda sotuvga qo‘yilsa, barglari barra ko‘rinishda bo‘lishi lozim.

(ii).I-sinf

Ushbu sinfdagi gulkaram yaxshi sifatga ega bo'lishi kerak. Ular nav va/yoki tijorat turiga xos xususiyatlarga ega bo'lishi lozim.

Boshlari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

• qattiq va zich bo‘lishi;

• tuzilishi zich (yopiq) bo‘lishi;

• oq navlar uchun oqdan fil suyagi rangigacha yoki qaymoqrang bo‘lishi;

STANDARTLAR INSTITUTI #JC58ON8S40 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

• dog‘lar, karam boshidan chiqib turgan barglar, sovuq urishi izlari, ezilishlar kabi nuqsonlardan xoli bo‘lishi kerak.

Biroq, quyidagi kichik nuqsonlarga yo‘l qo‘yilishi mumkin, agar ular mahsulotning umumiy ko‘rinishiga, sifatiga, saqlash sifatiga va qadoqdagi ko‘rinishiga ta’sir qilmasa:

Bundan tashqari, agar gulkaram “bargli” yoki “kesilgan” holda sotuvga qo‘yilsa, barglari yangi uzilgan ko‘rinishda bo‘lishi lozim.

Biroq quyidagi yengil nuqsonlarga, agar ular mahsulotning umumiy tashqi ko‘rinishiga, sifatiga, saqlanuvchanligiga hamda qadoqdagi taqdim etilishiga ta’sir qilmasa, yo‘l qo‘yilishi mumkin:

• shakli yoki rivojlanishidagi kichik nuqsonlar;

• rangidagi kichik nuqsonlar;

• juda yengil tuklanish (mayin tolali qoplama hosil bo‘lishi).

(iii). II-sinf

Bu sinfga yuqori sinflarga kiritish mumkin bo‘lmagan, lekin yuqorida ko‘rsatilgan minimal talablarga javob beradigan gulkaramlar kiradi.

Gulkaramning sifati, saqlanish sifati va ko‘rinishi bo‘yicha asosiy xususiyatlarini saqlab qolish sharti bilan quyidagi nuqsonlarga yo‘l qo‘yilishi mumkin:

• shakli yoki rivojlanishidagi nuqsonlar;

• tuzilishining biroz bo‘sh (zichligi yetarli darajada bo‘lmagan) bo‘lishi;

• oq navlarda rangining biroz sarg‘aygan bo‘lishi;

• quyosh ta’sirida kuyishning yengil izlari.

• beshtadan ko‘p bo‘lmagan, tashqariga chiqib turgan och yashil barglar;

• yengil tuklanish (biroq qo‘l tekkizganda nam yoki yog‘simon bo‘lmasligi kerak).

Bundan tashqari, ularda quyidagi nuqsonlardan ikkitasiga yo‘l qo‘yilishi mumkin:

• zararkunandalar yoki kasalliklar ta’sirida yuzaga kelgan yengil shikastlanish izlari;

• sovuq ta’sirida yuzaga kelgan yengil yuzaki shikastlanishlar;

• yengil ezilishlar.

III. O‘lcham bo‘yicha talablar

O‘lcham ekvatorial kesimning eng katta diametri bo‘yicha aniqlanadi.

O‘lcham gulkaram aylana yuzasining yuqori qismining ko‘ndalang kesimning eng katta diametri bilan aniqlanadi.

STANDARTLAR INSTITUTI #JC58ON8S40 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

G‘ovak boshli uzun poyali gulkaramga o‘lcham belgilash talablari qo‘llanmaydi..

IV. Me’yoriy og‘ishlarga oid qoidalar

Sotishning barcha bosqichlarida ko‘rsatilgan sinf talablariga javob bermaydigan mahsulotlar uchun har bir partiyada sifat va o‘lcham bo‘yicha ruxsat etilgan me’yoriy og‘ishlarga a yo‘l qo‘yiladi[1].

A. Sifat bo‘yicha me’yoriy cheklovlar

(i) Oliy sinf

Sinf talablariga javob bermasa-da, I sinf talablariga mos keladigan gulkaram uchun umumiy miqdorning soni yoki vazni bo‘yicha 5 foizgacha me’yoriy cheklovlardan chetga chiqishga ruxsat etiladi. Ushbu ruxsat etilgan me’yor doirasida umumiy miqdorning 0,5 foizidan ko‘p bo‘lmagan qismi II sinf talablariga javob beradigan mahsulotlardan tashkil topishi mumkin.

(ii) I sinf

Ushbu nav talablariga javob bermaydigan, ammo II sinf talablariga mos keladigan gulkaram uchun soni yoki vazni bo‘yicha umumiy 10 foizlik me’yoriy cheklovlar chetga chiqishga ruxsat etiladi. Ushbu ruxsat etilgan me’yor cheklovi doirasida umumiy miqdorning 1 foizidan ko‘p bo‘lmagan qismi II-sinf talablariga ham, eng kam talablarga ham javob bermaydigan mahsulotlardan yoki chirigan mahsulotlardan iborat tashkil topgan bo‘lishi mumkin

(iii) II sinf

Sinf talablariga ham, minimal talablarga ham javob bermaydigan gulkaramning soni yoki og‘irligi bo‘yicha umumiy miqdorining 10 foizigacha bo‘lganda, me’yor cheklovidan chetga chiqishga yo‘l qo‘yiladi. Ushbu ruxsat etilgan me’yor cheklov doirasida umumiy miqdorning 2 foizidan ko‘p bo‘lmagan qismi chiriyotgan mahsulotlardan iborat bo‘lishi mumkin.

B. O‘lchamdagi me’yoriy cheklovlar

Barcha sinflar uchun (agar o‘lchamlari bo‘yicha saralangan bo‘lsa):O‘lcham talablariga javob bermaydigan gulkaramlarning soni yoki og‘irligi bo‘yicha jami 10 foizgacha ruxsat etilgan chetlanishga yo‘l qo‘yiladi.

---

[1]Muvofiqlikni tekshirish birlamchi yoki yig‘ma namunalarni baholash orqali amalga oshiriladi. Ushbu tekshirish tasodifiy ravishda olingan namunalarning sifati butun partiya sifatini ifodalaydi, degan taxmin tamoyiliga asoslanadi.Muvofiqlikni tekshirish bo‘yicha OECD ish tartibi qoidalaridan foydalanish tavsiya etiladi — ushbu qoidalar jo‘natish bosqichlarida, shuningdek ulgurji savdo va taqsimlash markazlarida hamda oziq-ovqat chakana savdosi omborxonalarida operatorlar tomonidan ham qo‘llanishi mumkin.

STANDARTLAR INSTITUTI #JC58ON8S40 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

V. Taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi qoidalar

A. Bir xillik

Har bir qadoqning ichidagilar bir xil bo‘lishi va uning kelib chiqishi, navi yoki tijoratdagi turi, sifati va o‘lchami (agar o‘lchamiga ko‘ra saralangan bo‘lsa) bir xil bo‘lgan gulkaramdan iborat bo‘lishi kerak.

Biroq, sifat jihatidan bir xil bo‘lsa hamda tegishli tijoratdagi turi va/yoki rangiga ko‘ra kelib chiqishi bir joydan bo‘lgan gulkaram bilan birga, bir-biridan yaqqol farq qiladigan turli tijoratdagi turi va/yoki rangdagi gulkaram aralashmasini bitta qadoqqa joylashga ruxsat etiladi. Biroq, bu aralashmalarda o‘lchamlarning bir xilligi talab etilmaydi

Qadoq tarkibining ko‘rinib turgan qismi uning butun tarkibini ifodalashi lozim.

B. Qadoqlash

Gulkaram mahsulotini tegishli darajada himoya qiladigan tarzda qadoqlanishi kerak.

Qadoq ichida foydalaniladigan materiallar toza bo‘lishi hamda mahsulotga tashqi yoki ichki shikast yetkazmaydigan sifatga ega bo‘lishi kerak. Savdo belgilariga oid ma’lumotlar tushirilgan qog‘oz yoki tamg‘alar kabi materiallardan foydalanishga, bosma yoki yorliqlash ishlari zaharli bo‘lmagan siyoh yoki yelim yordamida bajarilgan taqdirda, ruxsat etiladi.

Mahsulotning har bir donasiga alohida yopishtiriladigan stikerlar olib tashlanganda, ulardan ko‘rinadigan yelim izlari qolmasligi va mahsulot yuzasida nuqsonlar hosil qilmasligi kerak.

Qadoqlar har qanday begona aralashmalardan xoli bo‘lishi kerak

VI. Tamg’alashga oid qoidalar

Har bir qadoqdagi[2] ma’lumotlar bir tomonda guruhlangan holda, tashqaridan aniq o‘qiladigan, o‘chmaydigan usulda tushirilgan hamda tashqi tomondan ko‘rinadigan holda quyidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak:

A. Identifikatsiylash

Qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi/eksportchi
UNECE:

Nomi va xaqiqiy manzili(masalan,ko’cha,shaxar,hudud,pochta indeksi hamda,agar kelib chiqish mamlakati bilan bir xil bolmasa,mamlakat nomi) yoki milliy vakolatli organ tomonidan rasman tan olingan kodli belgi[3], agar bunday tizimni qo’llaydigan mamlakat BMT YIK ma’lumotlar bazasiga kiritilgan bo’lsa[4]. Agar xaqiqiy manzili mavjud bo‘lmasa, yuridik manzil sifatida fermer xo‘jaligi yoki ishlab chiqarish obyektining nomi, eng yaqin qishloq yoki shahar, viloyat va pochta indeksi ko‘rsatilishi mumkin. Shuningdek, GPS koordinatalari hamda pochta qutisi

STANDARTLAR INSTITUTI #JC58ON8S40 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

manzili, unga eng yaqin shahar, viloyat va mamlakat nomi bilan birga ko‘rsatilgan taqdirda, jismoniy manzil sifatida qabul qilinadi.[5]

[2] Ushbu tamg’alash talablari mazkur ma’lumotlar ko‘rsatilgan tashqi qadoqqa joylashtirilgan iste’mol qadoqlariga nisbatan tatbiq etilmaydi. Biroq, alohida sotuvga mo‘ljallangan iste’mol qadoqlariga (oldindan qadoqlangan mahsulotlarga) nisbatan ushbu talablar qo‘llaniladi.

[3] Bir qator mamlakatlarning milliy qonunchiligi nomi va manzilini aniq ko‘rsatishni talab qiladi. Biroq, kodli belgi ishlatilgan taqdirda, ushbu kod bilan uzviy bog‘liq holda „qadoqlovchi yoki jo‘natuvchi“ (yoki shunga tenglashtirilgan qisqartma) ko‘rsatilishi kerak. Agar ushbu kodni tasdiqlagan mamlakat mahsulot kelib chiqqan davlat bo‘lmasa, koddan oldin o‘sha tasdiqlovchi mamlakatning ISO 3166 xalqaro kodi ko‘rsatilishi lozim.

[4.] http://www.unece.org/trade/agr/codemarkregistry.html.

[5.] Amerika Qo‘shma Shtatlari tomonidan pochta qutisi manzilidan foydalanish bo‘yicha e’tiroz bildirilgan, chunki bunday manzil ishlab chiqarish obyektlarini tekshirish yoki mahsulot qaytarib olinishi zarur bo‘lgan hollarda tezkor choralar ko‘rish imkonini bermasligi mumkin. Shuningdek, u ushbu mamlakatning qadoqlovchi va eksport qiluvchi shaxsga oid milliy tamg’alash talablariga kiritilmagan.

• B. Mahsulot xususiyati

• Agar qadoq ichi ko‘rinmasa, “Gulkaram” yozuvi bo‘lishi kerak

• Tegishli hollarda “Uzun poyali, bo‘sh boshli gulkaram” yoki unga tenglashtirilgan nomlanish ko‘rsatiladi.

• Tashqi tomondan ko‘rinmaydigan bo‘lsa, tijorat turini ko‘rsatish kerak.

• Gulkaramning bir-biridan yaqqol farq qiluvchi savdo turlari va/yoki ranglari aralashmasi uchun “Gulkaram aralashmasi Agar mahsulot tashqaridan ko‘rinib turmasa, qadoq ichidagi mahsulotning tijoratdagi turi yoki ranglari hamda har birining soni ko‘rsatilishi kerak.

C. Mahsulotning kelib chiqishi

• Kelib chiqish mamlakati[6] va ixtiyoriy ravishda yetishtirilgan hudud, shuningdek milliy, mintaqaviy yoki mahalliy joy nomi ko‘rsatilishi mumkin.

• Turli mamlakatlardan keltirilgan, bir-biridan yaqqol farq qiluvchi tijoratdagi turlari va/yoki ranglaridagi gulkaramlar aralashmasi mavjud bo‘lsa, har bir kelib chiqqan mamlakat nomi tegishli tijoratdagi turi va/yoki rangining yonida ko‘rsatilishi shart..

D. Savdo xususiyatlari

• Sinf

• O‘lchami (agar o‘lchami bo‘yicha saralangan bo‘lsa), eng kichik va eng katta diametrlar yoki dona soni ko‘rsatilgan holda ifodalanadi.

E. Rasmiy nazorat belgisi (ixtiyoriy)

Adopted — standartlar uchun “Qabul qilingan”;

Last revised — “So‘nggi qayta ko‘rib chiqilgan”;

Aligned with the Standard Layout — “Standart tuzilmasiga moslashtirilgan” (UNECE standartlarining yangi formatiga muvofiqlashtirilgan ma’nosida).

_____

[6.] To‘liq yoki keng qo‘llaniladigan nomi ko‘rsatilishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #JC58ON8S40 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI